

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda
TURLI AGROTEXNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA
TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod
SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA
TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat
KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK
KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza
O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY
TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat
QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI
TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING
MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамилла
СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ
ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина
ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ
АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika
GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat
FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN
LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat
BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI
INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli

O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK
YONDASHUV67-72

SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA TA'SIRI

Raxmonqulova Lola Farhod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
agrokimyo va o'simliklarni himoya qilish kafedrasida magistranti
Email: zs029031@gmail.com

Umurzakov Elmurod

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori

Annotatsiya. Shaftoli biti, loviya, loviya maydoni, zararkunanda, biologiyasi, fenologiyasi, qarshi kurash, zararlilik darajasi, kimyoviy kurash, maxsuldorlik.

Kalit so'zlar. Shaftoli biti, kemiruvchi, zararkunanda, o'sish va rivojlanish, samaralilik.

THE IMPACT OF PEACH APHIDS ON THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF BEANS

Raxmonkulova Lola Farhod kizi

postgraduate student of the
Department of Agrochemistry and Plant Protection of the
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Umurzakov Elmurod

Samarkand state university of veterinary medicine,
animal husbandry and biotechnology

Annotation. Peach aphid, beans, bean field, pest, biology, phenology, control, level of damage, chemical control, productivity.

Keywords: Peach aphid, rodent, pest, growth and development, productivity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n02>

Kirish. Respublikamiz hududida keyingi yillarda takroriy ekin sifatida loviya ekib kelinmoqda. Loviya maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish hosilni saqlab qolish uchun muhimdir.


BMTning FAO oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti sessiyasida qishloq xo'jalik zararkunandalari oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf solayotganligi va ularning ta'sirida qishloq xo'jalik ekinlarining 40% hosili nobud bo'layotganligi va bu nobudgarchilik dunyo miqyosida 220 million AQSH dollarini tashkil qilinishi ta'kidlandi. Shu sababli o'simliklarni himoya qilish respublikamizda qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha barqaror rivojlantirishda asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

Dunyo qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan dukkakli don ekinlari inson uchun eng zarur oqsil, yog' va uglevodlarga boy bo'lganligi sababli inson organizmi tomonidan

ko'p talab qilinadigan oziqa mahsuloti hisoblanadi. Shunga ko'ra dukkakli don ekinlarida zarar keltirayotgan zararkunandalarning tur tarkibi, biologik xususiyatlari, tarqalishi va zararini o'rganish asosida ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar umumiy entomologiya hamda qishloq xo'jalik entomologiyasida keng foydalaniladigan usul va uslublar yordamida bajarildi. Entomologik hisoblar va kuzatuvlarni G.Ya.Bey-Bienko, L.A.Kopaneva aniqlagichlari yordamida; zararkunandalarning zichligi, uchrashi, dominantlarini aniqlashda K.Fasulati uslublari; Hasharotlarning zararlilik darajasi V.I.Tanskiy uslubi bo'yicha aniqlandi. Agrotoksikologik tajribalarni K.A.Gar, Sh.T.Xo'jaev uslubiga muvofiq o'tkazildi. Dala va laboratoriya tajribalarida biologik samaradorlikni hisoblash nazorat variantini inobatga oladigan Sh.S.Abbot formulasiga muvofiq aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda такрорий экилган ловия zararkunandalar ichida keltiradigan zarari bilan iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan Shaftoli biti hisoblanadi. Shaftoli biti (*Myzodes persicae* Sulz.) loviya o'simligini jiddiy zararlaydi. O'simlik bitlari keng tarqalgan va o'simliklarni hosili hamda sifatiga katta ta'sir qiluvchi so'ruvchi zararkunandalardan hisoblanadi. Ular tengqanotlilar (Homoptera) turkumining Aphidinea kenja turkumiga mansub hasharotlardir. Ularning uch mingga yaqin turi mavjud. *Myzodes persicae* Sulz. – shaftoli biti juda keng tarqalgan va shu bilan birga juda ham zararli tur hisoblanadi.



Shaftoli bitining tashqi organlari tuzulishi.

Shaftoli biti (*Myzodes persicae* Sulz.) loviyaning asosiy zararkunandasi hisoblanib, dunyoning barcha qismida hududlarida tarqalgan.

Shaftoli biti turli xil o'simliklar bilan oziqlanadi, lekin qishlovchi tuxumlar qo'yiladigan o'simliklar asosiy oziq o'simligi bo'lib hisoblanadi. Erta bahorda tuxumlardan bitlarning tirik tug'adigan bir necha bo'g'imlari rivojlanadi.

O'rta Osiyoda, ayniqsa O'zbekistonda shiralarning xilma-xilligi chegaralangan bo'lsada, mazkur guruhga mansub bitlar boshqa mintaqalarda, jumladan, Palearktikada turlarga boy bo'ladi. Shu bois dunyoda bitlar kataloglarining har birida ushbu zararkunandalarning 100 ga yaqin turlari uchrashligi aniqlangan.

Bitta urg'ochi shaftoli biti 70-80 tagacha tirik lichinka tug'ib ko'payadi. Urg'ochi shaftoli biti bir-ikki oy yashaydi. Aprel oyining o'rtalarida qanotli shaftoli bitlar tug'ilib, ular kurtak va

yosh barglarni zararlay boshlaydi. Shaftoli biti bir yilda 14 martagacha avlod berib ko'payishi mumkin. Shaftoli bitlar yozda tuxum qo'ymasdan tirik lichinkalar tug'adi.

Samarqand viloyati Jomboy tumani sharoitida Sag AGRO MCHJ loviya maydonida shaftoli biti rivojlanishining biologik xususiyatlari.

| Kuzatish olib borilgan yillar | Qishlashdan chiqqan lichinkalar rivojlanishi (kunlarda) | Rivojlanish davomiyligi: bitta avlod (kunlarda) | | | Keyingi avlod rivojlanish davomivligi |
|-------------------------------|---|---|------------------------|------------------------------|---------------------------------------|
| | | Tuxum | yetuk hasharot (imago) | yozda lichinkalarni chiqishi | |
| 2022 | 72,4±1,6 | 3,7±0,7 | 8,1±1,6 | 16,9±2,8 | 327,9±2 |
| 2023 | 73,8±1,4 | 3,5±0,6 | 7,8±1,1 | 18,2±2,4 | 328,6±2,3 |

Shaftoli shira- bitlar loviya bargi hamda o'suv nuqtalarida o'simlik shirasini so'rib oziqlanadi. Natijada loviyaning o'sib rivojlanishiga va uning hosildorligiga ko'plab zarar keltiradi. Bundan tashqari, loviyada zarar keltiradigan virusli kasalliklarni tarqalishida vositachi hisoblanadi.

Shaftoli yashil bitining loviya maydonlarida rivojlanish fenologiyasini kuzatganimizda, shaftoli yashil biti mart oyining ikkinchi dekadasida qishlovdan chiqishini kuzatdik. Eng yuqori darajada zarar keltirish muddati aprel oyining ikkinchi dekadasidan may oyining oxiriga qadar davom etishini kuzatdik. Havо haroratining isib ketishi bilan ularning ko'payish jarayoni sustlashadi. Oktyabr oyining oxiri noyabr oyining boshlaridan tuxumlari qishlashga ketadi.

Xulosa. Zararkunandalardan shaftoli biti takroriy ekilgan loviya ekin maydonlarida uchraydi. Loviya hosil elementlariga jiddiy zarar keltirib har xil kasalliklarni ham keltirib chiqaradi. Bundan tashqari biologik samaradorligigaham tasir ko'rsatmay qolmaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Хўжаев Ш.Т. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари // - Тошкент.- Фан.- 2010.- 356 б.
2. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (проф. Ш.Т. Хўжаев таҳрири остида). -Тошкент.- 2004 . - 103 б.
3. Хўжаев Ш., Обиджонов Д., Шокирова Г., Юлдашев Ф. Ҳашаротларнинг зарари ва ўсимликларни улардан ҳимоя қилишнинг истиқболлари. Агрокимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини, 2017, №4, - 30 – 33 б.
4. Ахмедов С.И., Умурзақов Э.У. Зараркунандаларга қарши инсектицидларни қўллаш самарадорлиги. – Республика илмий-амалий конференция материаллари.- СамВМИ.- Самарқанд.- 2020.- б.122-125.

5. A.To'raev. Kuzgi bug'doy va takroriy ekinlar. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 2001 y. 6-son. 40 b.
6. Kimsanboyev H.X., Ergashev S.F., O'lmasboyeva R.Sh., Sulaymonov B.A. Entomologiya. O'quv qo'llanma. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent. 2016.-345 bet.
7. Umurzakov E.,Axmedov S.,Mamasaliyev I. Qishloq xo'jalik entomologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2021.-316 bet.
8. Долженко Т.В., Колесников Л.Е., Семенова А.Г. Интегрированная защита растений. Учебник. Лань. Санкт-Петербург. 2024.-120 с.
9. George C. McGavin, Leonidas-Romanos Davranoglou. Essential Entomology. Textbook. Oxford university press. USA. Oxford. United Kingdom. 2022.-p. 314.
10. Larry P. Pedigo, Marlin E. Rice. Entomology and Pest Management. Textbook. Long Grove, Illinois. Waveland Press. USA.2015.-p.784.
11. https://agromage.com/stat_id.php?id=1127.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.